



IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal



“MILLIY IQTISODIYOTNI BARQAROR SAQLASHDA “YASHIL IQTISODIYOT”, “YASHIL MOLIYA”, “YASHIL BUXGALTERIYA” VA ILG‘OR MUHANDISLIK MAKTABLARINI ILMIY-AMALIY INTEGRATSIYALASHTIRISH DOLZARBLIGI”

Maqola va tezislar to‘plami

2025-YIL
30-MAY





IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 102 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 11-martda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Omborxonada wms tiziminidan foydalanishni afzalliklari.....	16
G'ofurov Shoxjaxon Abdumajit o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
Интеграция проектного офиса в корпоративную структуру строительной компании, работающей по ерс-контрактам.....	21
Махмудов Сардор Козим угли	
Investitsion muhit va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili	24
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li	
Tadbirkorlik faoliyati to'g'risidagi itimoiy-iqtisodiy qarashlar tahlili	27
Abduvohidov Behzod XXX	
Tijorat banklarida kredit portfelini boshqarishning asosiy yo'nalishlari.....	30
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
O'zbekistonda davlat budjetini kupaytirishda soliqlarni ahamiyati.....	34
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Dunyo oziq-ovqat bozorining dinamik rivojlanishidagi o'zgarishlar, qiyinchiliklar va ularning yechimlari	36
Tolipova Baxtigul Farxodovna	
Исследование тепловых и диффузионных процессов при азотировании зубчатых колес в вакуумной среде	39
Жасурбек Юлдашбоевич Холмирзаев	
Axborot tizimlaridan foydalangan holda tashkilotni boshqarish bo'yicha qarorlar qabul qilishni takomillashtirish	49
Xujamova Shahrizoda Otabek Qizi	
Sanoat sektorida dekarbonizatsiya va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish strategiyalari	52
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Sanoat rivojlanishini ekonometrik modellash (Surxondaryo viloyati misolida)	56
Xalmuratov Zakirjan Mekkamovich	
"Yashil iqtisodiyot" – barqaror taraqqiyot omili.....	58
Lapasova Kamola Farhod qizi	
Umumta'lim maktablarida informatika fanini o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari	60
Raxmonov Baxtiyor Azzamovich	
"Makroiqtisodiy masalalarni yechishda matematik modellarning ahamiyati"	63
Abdiraimov Abbas Xolmurod O'g'li	
Moda marketingida iste'molchilarning ichki ehtiyojlari va xulq-atvoriga asoslangan yondashuvlar	67
Tuxtaeva Oydinoy Normamatovna	
O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish siyosatida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik tahlili	72
Raximov Ilyos Muydinovich	
Tijorat banklarida omonatlarni jalb qilishda mijoz sodiqligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar	75
Raximov Shoxrux Furqatovich	
Raqamli bank xizmatlarida sun'iy intellektdan foydalanishning istiqbollari va xavfsizlik masalalari	78
Erdonayev Aliqul Xalimovich	
Ta'minot zanjirini optimallashtirish yo'llari.....	82
Matkarimova Umida Alisher qizi, Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich	
The role of global value chains in international trade competition.....	85
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	
Электронная коммерция в узбекистане: государственные стратегии, технологический прогресс и барьеры развития.....	88
Махаммадалиева Муслимахон Шерали Кизи	



Modernization of the social protection system through digital technologies and innovative approaches.....	90
Abduzoirov Mukhiddin Umidjon ugli, Quدراتov Inomjon Nemat ugli	
Tabiiy va sun'iy tolalar asosida qayta ishlangan mahsulotlarning texnologik sifati va iqtisodiy samaradorligi.....	93
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B bozori uchun barqaror va yashil taqsimot modellarini ishlab chiqish.....	97
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	



MAISHIY KIMYO TOVARLARI B2B BOZORI UCHUN BARQAROR VA YASHIL TAQSIMOT MODELLARINI ISHLAB CHIQUISH

Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi

TDIU, Marketing kafedrası tayanch doktoranti

e-mail: ruzievafarzona@yandex.ru

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda maishiy kimyo mahsulotlarini B2B bozorida taqsimlashda barqaror va ekologik yondashuvlar o'rganildi. Chemical Leasing, yashil logistika va ESG mezonlariga asoslangan modellar tahlil qilinib, an'anaviy taqsimotga nisbatan ustun jihatlari aniqlangan. SWOT va qiyosiy tahlillar asosida xizmatga yo'naltirilgan, raqamli boshqaruv bilan integratsiyalashgan yechimlar istiqbolli deb topildi. Tadqiqot natijalari asosida amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: B2B taqsimot, Chemical Leasing, yashil logistika, barqarorlik, ESG, maishiy kimyo, xizmatga asoslangan model.

Abstract: This study explores sustainable and eco-friendly distribution models for household chemicals in the B2B sector. Models based on Chemical Leasing, green logistics, and ESG principles were analyzed and found to be more effective than traditional systems. SWOT and comparative analysis revealed the potential of service-oriented, digitally integrated approaches. Practical recommendations were developed based on the findings.

Key words: B2B distribution, Chemical Leasing, green logistics, sustainability, ESG, household chemicals, service-based model.

Аннотация: В данной работе исследованы устойчивые и экологически безопасные модели распределения бытовой химии в B2B-секторе. Анализ моделей, основанных на принципах Chemical Leasing, зеленой логистики и ESG, показал их преимущества перед традиционными подходами. На основе SWOT-анализа и сравнительной оценки сделан вывод о перспективности сервисных моделей с цифровым управлением. По результатам исследования разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: B2B, Chemical Leasing, зеленая логистика, устойчивое развитие, ESG, бытовая химия, сервисная модель.

KIRISH

So'nggi yillarda ekologik muvozanatni saqlash, resurslardan oqilona foydalanish va ijtimoiy javobgarlikni oshirish sanoat tarmoqlarida, ayniqsa kimyo sohasida muhim masalaga aylandi. Maishiy kimyo mahsulotlari turli sohalarida keng qo'llaniladi. Ammo bu mahsulotlarning tarkibi, saqlanishi va tashilishi atrof-muhitga zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli ularni ishlab chiqarishdan tortib, mijozga yetkazishgacha bo'lgan barcha bosqichlar tartibli va mas'uliyatli tashkil etilishi lozim.

Agar bu jarayon B2B (ya'ni bir korxonadan boshqasiga) shaklida amalga oshirilsa, mahsulot bilan birga doimiy hamkorlik va o'zaro ishonchli munosabatlar ham shakllanadi. Aynan shuning uchun B2B taqsimot tizimini nafaqat iqtisodiy, balki ekologik talablar bilan uyg'unlashtirish zarur. Bugungi kunda ko'plab kompaniyalar faqat arzon va tez taqsimlovchi tizimlarga emas, balki xavfsiz, mas'uliyatli va uzoq muddatli yechimga intilmoqda.

Ushbu ilmiy ishda aynan shu yo'nalish tahlil qilinadi. Maqsad – maishiy kimyo mahsulotlarini B2B bozori orqali taqsimlashda qo'llanilayotgan yondashuvlarni o'rganish, ulardan eng samarali va ekologik jihatdan maqbullarini aniqlash hamda ular asosida foydali takliflar ishlab chiqishdir. Tadqiqotda Chemical Leasing modeli, yashil logistika va raqamli boshqaruv kabi yondashuvlar o'rganildi. Ularning qaysi biri barqarorlikka va real natijalarga olib kelishi mumkinligi tahlil qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda barqarorlik va yashil iqtisodiyot konsepsiyasi B2B sektorida taqsimot modellarini tubdan qayta ko'rib chiqishga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, maishiy kimyo mahsulotlarini tarqatishda ekologik xavfsizlik, xizmatga asoslangan yondashuv va ESG (Environmental, Social, Governance) mezonlariga moslik muhim strategik omillarga aylanmoqda.



Marketing nazariyasining klassik asarlari – Kotler va Keller (2016) [1], Blythe va Martin (2016) [2] – taqsimot va qiymat zanjiri tushunchalarini chuqur asoslab, bozordagi o'zaro aloqalarning ahamiyatini ko'rsatadi. Hutt va Speh (2013) [4] esa B2B sektorining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradi, xususan, uzoq muddatli sheriklik, ishonch va texnologik muvofiqlik ustuvor deb qaraladi.

Green logistics va barqaror distributsiya modellarini chuqur yoritgan Gruchmann (2018) [8] va Tien et al. (2017) [5] asarlarida ta'minot zanjirida ekologik jihatlar muhim o'ringa ega ekani ko'rsatilgan. Chemical Leasing modeli esa, Buschak va Lay (2014) [16] hamda Lozano et al. (2013) [10] tomonidan xizmatga asoslangan taqsimot yechimi sifatida taklif qilingan. Ular mahsulot sarfini emas, samaradorligini boshqarish orqali barqarorlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydi.

ESG yondashuvining distributsiya tizimidagi roli Mahesh et al. (2024) [15] va Sheth & Sinha (2015) [17] tadqiqotlarida keng tahlil qilingan. Ular korxonalarning ekologik, ijtimoiy va boshqaruv mas'uliyatlari brend imiji va investor ishonchiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ilmiy asoslagan.

Raqamli yechimlarning bu boradagi roli haqida Ketola (2020) [7] va Chaffey & Ellis-Chadwick (2019) [3] raqamli transformatsiya orqali mijoz yo'nalishini barqarorlik bilan uyg'unlashtirish zaruratini ko'rsatadi. Ayniqsa, ko'p kanalli B2B taqsimot modellarida raqamli monitoring vositalari yordamida energiya va resurs tejilishi kuzatilmoqda.

Sima (2013) [12] va Iannuzzi (2014) [9] tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yashil marketing yondashuvi va mijozlar ongini shakllantirishdagi metodlar asoslangan. Ular yashil brend konsepsiyasi orqali barqarorlik nafaqat ichki boshqaruv, balki tashqi kommunikatsiyalarda ham asosiy vosita bo'lishi mumkinligini ilgari suradi.

Xulosa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar B2B distributsiya tizimida barqarorlikka erishish uchun quyidagi strategik ustuvorliklarni taqdim etadi:

- mahsulot emas, xizmatga yo'naltirilgan model (Chemical Leasing);
- ekologik va raqamli yondashuvlarning integratsiyasi;
- ESGga moslik orqali ichki va tashqi ishonchni oshirish.

Ushbu adabiy asoslar keyingi tahlil va model tavsiyalarini ishlab chiqishda nazariy poydevor bo'lib xizmat qildi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda maishiy kimyo mahsulotlarini B2B bozorida barqaror va ekologik taqsimot modellarini aniqlashga qaratilgan aralash (mixed-method) metodologik yondashuv qo'llanildi. Nazariy asoslash bosqichida yetakchi ilmiy adabiyotlar – Chemical Leasing, yashil logistika, ESG tamoyillari, raqamli transformatsiya va B2B marketingga oid 19 ta manba tizimli tahlil qilindi. Kontent-tahlil asosida asosiy tushunchalar va dolzarb yondashuvlar ajratildi.

Tadqiqotning empirik qismida SWOT tahlili orqali Chemical Leasing modelining ichki va tashqi omillari baholandi, qiyosiy tahlil esa an'anaviy va yashil taqsimot modellarini ekologik, iqtisodiy va boshqaruv mezonlari bo'yicha solishtirishga xizmat qildi. Jadval asosida hosil qilingan farqlar va afzalliklar tahlil natijalarini dalillashga yordam berdi.

Metodologiya doirasida amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish uchun ESG mezonlari bilan uyg'un raqamli va xizmatga asoslangan taqsimot yondashuvlarining amalga oshirish yo'llari baholandi. Mazkur uslubiy yondashuv, nazariy g'oyalar va real amaliyot o'rtasida uyg'unlikni ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maishiy kimyo mahsulotlarini B2B bozori orqali taqsimlash jarayonida barqarorlik g'oyalarini hayotga tatbiq etish, zamonaviy sanoat strategiyasining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Barqarorlik nafaqat atrof-muhitni asrashni, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va korporativ ijtimoiy mas'uliyatni ham anglatadi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqotda turli taqsimot modellarining B2B sohasida qo'llanish imkoniyatlari, ularning afzalliklari va zaif tomonlari, shuningdek, strategik samaradorligi tahlil qilindi.

B2B kimyo sanoatida so'nggi yillarda keng muhokama qilinayotgan yondashuvlardan biri bu – Chemical Leasing modelidir. Ushbu modelning asosiy mohiyati mahsulotni emas, balki uning xizmatga asoslangan funksiyasini yetkazishga qaratilgan. Kimyoviy vositalarning iste'moli emas, balki undan samarali, xavfsiz va ekologik jihatdan maqbul foydalanish modeli ishlab chiqaruvchi uchun daromad manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu yondashuv, ayniqsa atrof-muhit xavfsizligi talablari keskin kuchaygan zamonaviy sharoitda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Chemical Leasing modeli orqali ishlab chiqaruvchi va mijoz o'rtasidagi munosabatlar klassik "sotuvchi-xaridor" formulasidan chiqib, doimiy hamkorlik va xizmat ko'rsatish tamoyiliga o'tadi. Natijada, kimyoviy mahsulotlar isrof bo'lmaydi, ularni nazorat ostida, belgilangan dozalarda ishlatish rag'batlantiriladi, chiqindilar



hajmi sezilarli darajada qisqaradi. Aynan ushbu jihatlar Chemical Leasing modelini barqaror taqsimot yechimi sifatida ilgari surishga asos bo'lmoqda.

Ushbu modelning ichki kuchli va zaif tomonlari, shuningdek, tashqi imkoniyat va tahdidlarini aniqlash maqsadida SWOT tahlili o'tkazildi. Jadvalda bu modelning asosiy ustunliklari sifatida chiqindilar hajmining kamayishi, ESG ko'rsatkichlariga muvofiqlik, investorlar uchun jozibadorlik keltirilgan. Shu bilan birga, texnologik murakkablik va foydalanuvchi xabardorligining yetarli emasligi modelni ommaviy joriy etishda muayyan cheklovlarga sabab bo'lishi mumkin.

1-jadval. Chemical Leasing modeli asosida SWOT tahlili¹.

SWOT komponenti	Izoh
Kuchli jihatlar	- Chiqindilar hajmini kamaytiradi, resursdan oqilona foydalanishga imkon beradi [10]. - Xizmatga asoslangan model xaridor bilan uzoq muddatli hamkorlikni mustahkamlaydi [16]. - ESG talablari bilan to'liq mos, barqaror boshqaruv tizimlariga qulay integratsiyalashadi [19].
Zaif tomonlar	- Texnik joriy etilishi murakkab bo'lishi mumkin, xodimlarni maxsus o'qitish zarur [16]. - Mijozlar orasida yetarli darajada tushuncha mavjud emas, keng qamrovli axborot siyosati talab etiladi [19].
Imkoniyatlar	- ESG mezonlari asosida sarmoya jalb qilish imkoniyati ortadi [15]. - B2B sektorida xizmatga asoslangan model orqali brendga bo'lgan ishonch mustahkamlanadi [17].
Tahdidlar	- Ayrim mintaqalarda me'yoriy-huquqiy noaniqliklar modelni to'liq joriy etishda to'siq bo'ladi [10]. - An'anaviy yondashuvga o'rgangan bozor ishtirokchilari tomonidan rad etilishi mumkin [16].

Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, Chemical Leasing modeli maishiy kimyo sanoatida xizmatlashgan, ekologik barqaror va iqtisodiy jihatdan ma'qul yondashuv sifatida katta salohiyatga ega. U ayniqsa ESG mezonlarini ichki tizimga integratsiya qilgan va raqamli monitoring mexanizmlariga ega korxonalar uchun strategik ustunlik yaratadi.

Tadqiqotning keyingi bosqichida mavjud taqsimot amaliyotlari ikki asosiy model – an'anaviy va barqaror (yashil) yondashuvlar kesimida tahlil qilindi. Bunda mezon sifatida ekologik ta'sir, xarajat samaradorligi, mijozlar ishonchi, texnologik daraja va ESGga moslik kabi parametrlar tanlandi. Har bir mezon bo'yicha modellar o'rtasidagi farqlar tizimli tarzda taqqoslandi.

Natijalarga ko'ra, an'anaviy model qisqa muddatli iqtisodiy tejamkorlik bilan ajralib tursa-da, uzoq muddatda ekologik va strategik jihatdan zaiflikka ega. Bu model odatda CO₂ chiqindilarining yuqoriligi, qayta ishlanmaydigan qadoqlash vositalari, past raqamlashtirish darajasi va ESG mezonlariga mos kelmasligi bilan tavsiflanadi. Boshqa tomondan, yashil model boshlang'ich investitsiyalar talab qilishi mumkin, ammo u uzoq muddatda ekologik xavfsizlik, mijoz ishonchi va boshqaruv sifatini oshirish orqali afzallikka ega.

2-jadval. An'anaviy va yashil taqsimot modellarining qiyosiy tahlili².

Mezonlar	An'anaviy taqsimot modeli	Yashil taqsimot modeli
Ekologik ta'sir	Uglerod chiqindilari yuqori, chiqindilar nazoratsiz [5].	Ekologik xavflarni kamaytiradi, chiqindilar miqdorini nazorat ostiga oladi [8][9].
Xarajat samaradorligi	Dastlabki xarajalar past, biroq uzoq muddatda yashirin xarajalar ko'proq [5].	Dastlab sarmoya talab etiladi, ammo uzoq muddatda iqtisodiy foydasi aniq [9].
Mijoz ishonchi	Mijoz bilan aloqa sathi past, xizmat sifati doimiy nazorat qilinmaydi [4].	Ijtimoiy mas'uliyat, ekologik imidj va xizmat sifati orqali mijoz sodiqligi oshadi [17].
Texnologik yechimlar	Qisman raqamlashtirilgan, asosiy jarayonlar inson omiliga bog'liq [4].	Avtomatlashtirilgan tizimlar, IoT, ERP va raqamli logistika texnologiyalari bilan uyg'un [8].
ESGga moslik	ESG mezonlariga qisman mos, ko'p hollarda mos emas [9].	ESG tamoyillarini to'liq qamrab oladi, xalqaro reytinglarda ijobiy natijaga olib keladi [15][17].

1 Muallif ishlanmasi

2 Muallif ishlanmasi



Yashil modelni tanlagan B2B subyektlari faqat ekologik jihatdan emas, balki brend imiji, mijozlar sadoqati va raqamli boshqaruv samaradorligi bo'yicha ham ustunlikka erishmoqda. Bu holat barqarorlikni faqat ijtimoiy vazifa sifatida emas, balki real iqtisodiy foyda manbai sifatida qabul qilish zarurligini isbotlaydi.

B2B taqsimot amaliyotida strategik yondashuv barqarorlik bilan bevosita bog'liq bo'lib, yashil model nafaqat ESG ko'rsatkichlarini yaxshilaydi, balki xorijiy investorlar va xorijdagi hamkorlar bilan ishonchli aloqa o'rnatish uchun ham muhim vosita vazifasini bajaradi. Shu boisdan, bu modelni B2B kimyo sanoatining logistik strategiyasiga integratsiyalash real ehtiyojdan kelib chiqqan bosqich sifatida qaralishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar asosida maishiy kimyo mahsulotlarini B2B bozori orqali barqaror va ekologik xavfsiz shaklda taqsimlashning zamonaviy modellari aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy distributsiya tizimlari qisqa muddatda qulay ko'rinsa-da, uzoq muddatli barqarorlik va raqobatbardoshlik nuqtai nazaridan yashil taqsimot modellariga imkoniyat bermaydi. Bunda xizmatga asoslangan Chemical Leasing yondashuvi, ESG tamoyillariga mos strategiyalar va raqamli boshqaruv tizimlari ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Chemical Leasing modeli taqsimotda mahsulotdan ko'ra xizmatning ahamiyatini oshirib, chiqindilar hajmini kamaytiradi va mijoz bilan doimiy hamkorlikni yo'lga qo'yadi. Bu esa korxonaning barqarorlik strategiyasiga real foyda keltiradi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va ko'p kanalli distributsiya tizimlari orqali boshqaruv samaradorligi, ekologik nazorat va mijoz ishonchi sezilarli oshadi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. B2B sektorda Chemical Leasing modelini bosqichma-bosqich joriy etish: mahsulotdan foydalanish xizmatiga asoslangan yondashuvni amaliyotga tatbiq qilish orqali ekologik samaradorlik va iqtisodiy tejamkorlikka erishish mumkin.

2. ESG tamoyillariga asoslangan boshqaruv tizimini yaratish: bu nafaqat barqarorlikni ta'minlaydi, balki xalqaro investitsion jozibadorlikni oshiradi.

3. Raqamli taqsimot texnologiyalarini keng qo'llash: mahsulot harakati, chiqindi darajasi va xizmat sifati kabi ko'rsatkichlarni real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

4. Yashil marketing va mijoz xabardorligini kuchaytirish: barqarorlik qadriyatlarini samarali kommunikatsiya orqali mijozlarga yetkazish, B2B hamkorlikni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi.

B2B distributsiyada barqaror va yashil yondashuvlar – bu nafaqat ekologik ehtiyojga javob, balki raqobatbardoshlik, iqtisodiy izchillik va strategik boshqaruvning ajralmas qismidir. Maishiy kimyo sanoatida ushbu yondashuvlar orqali korxonalar o'z faoliyatini xalqaro standartlarga muvofiq tarzda rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kotler, P., & Keller, K. L. (2016). *Marketing Management* (15th Global Ed.). Pearson Education.
2. Blythe, J., & Martin, J. (2016). *Essentials of Marketing*. Pearson Education.
3. Chaffey, D., & Ellis-Chadwick, F. (2019). *Digital Marketing* (7th ed.). Pearson Education.
4. Hutt, M. D., & Speh, T. W. (2013). *Business Marketing Management: B2B*. Cengage Learning.
5. Tien, D., et al. (2017). *Global Supply Chain and Logistics Management*. Wiley.
6. Ailawadi, K. L., & Farris, P. W. (2017). *Getting Multi-Channel Distribution Right*. Harvard Business Review.
7. Ketola, G. (2020). *Digitalising B2B Customer Journeys* [Master's thesis, University of Oulu]. <http://jultika.oulu.fi/files/nbnfioulu-202012193373.pdf>
8. Gruchmann, T. (2018). *Advanced Green Logistics Strategies and Technologies*. <https://www.researchgate.net/publication/327320520>
9. Iannuzzi, A. (2014). *Greener Products: The Making and Marketing of Sustainable Brands*. CRC Press.
10. Lozano, R., Carpenter, A., & Huisingh, D. (2013). Fostering green chemistry through a collaborative business model. *Resources, Conservation and Recycling*, 70, 62–72. <https://doi.org/10.1016/j.resconrec.2012.11.003>
11. Oláh, J., Popp, J., Khan, M. A., & Kitukutha, N. (2023). Sustainable e-commerce and environmental impact on sustainability. *Economics and Sociology*, 16(1), 85–105. <https://doi.org/10.14254/2071-789X.2023/16-1/6>
12. Sima, V. (2013). B2B Green Marketing in Romania. *Economic Insights – Trends and Challenges*, 1(1), 151–158.
13. Fichter, K. (2001). Sustainable Business Strategies in the Internet Economy. In *EnvirolInfo 2001: Sustainability in the Information Society*. Metropolis Verlag. [https://ftp.idu.ac.id/wp-content/uploads/ebook/ip/LOGISTIK/document%20\(9\).pdf](https://ftp.idu.ac.id/wp-content/uploads/ebook/ip/LOGISTIK/document%20(9).pdf)
14. Kasian, S., Sapiński, A., & Petukhov, V. (2023). International marketing, pricing, communications & logistics within the framework of sustainable development. *Visnyk of the Lviv University of Trade and Economics*, 63, 133–143. <https://doi.org/10.30970/ves.2022.63.0.6311>
15. Mahesh, K. M., Aithal, P. S., & Sharma, K. R. S. (2024). The role of ESG in E-Commerce start-ups SMEs: For sustainable inclusive economy. *GBS Impact*, 10(1), 44–51. <https://doi.org/10.58419/gbs.v10i1.1012403>
16. Buschak, D., & Lay, G. (2014). Servitization in chemical industry: Chemical leasing. In G. Lay (Ed.), *Servitization in Industry* (pp. 131–146). Springer. https://doi.org/10.1007/978-3-319-06935-7_8



17. Sheth, J. N., & Sinha, M. (2015). B2B branding in emerging markets: A sustainability perspective. *Industrial Marketing Management*, 51, 79–88. <https://doi.org/10.1016/j.indmarman.2015.06.002>
18. Velita, R., & Suson, R. (2023). Green marketing strategies for a sustainable business. *E3S Web of Conferences*, 398, 03034. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202339803034>
19. Zhu, X. (2020). Chemicals sales management and business strategy in green supply chain [Master's thesis, Siam University]. <https://e-research.siam.edu/wp-content/uploads/2021/02/IMBA-2020-IS-Chemicals-Sales-Management-And-Business-Strategy-In-Green-Supply-Chain.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025-yil, may.

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>